Tilovmurodova Shamsiqamar Furqat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti; E-mail: tilovmurodovashamsqamar@gmail.com)

NIRMAL VARMANING DASTLABKI HIKOYALARIDA O‘TMISHGA QAYTISHLAR: NARRATIV TUZILMA VA BADIIY MAQSAD

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Nirmal Varmaning “Yangi hikoya” harakati doirasidagi yozilgan dastlabki hikoyalarida o‘tmishga qaytish (flashback) usulidan foydalanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot Janet (Gérard Genette)ning narrativ nazariyasi asosida olib borilib, o‘tmishga qaytishlar zamonaviy inson tajribasining parchalanishini, o‘tgan hayotiy iztiroblar sababli vujudga kelgan ruhiy jarohatlarni va mavjudlikning ma’nosizligini yoritishda qanday badiiy vosita sifatida xizmat qilishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Nirmal Varma, yangi hikoya harakati, o‘tmishga qaytish (flashback), bayon qilish tuzilmasi, zamonaviy inson tajribasi, ruhiy jarohat, mavjudlik ma’nosizligi.*

Тиловмуродова Шамсикамар Фуркат кызы (Ташкентский государственный университет востоковедения, докторант; e-mail: tilovmurodovashamsqamar@gmail.com)

АНАЛЕПСИС В РАННИХ РАССКАЗАХ НИРМАЛА ВЕРМЫ: НАРРАТИВНАЯ СТРУКТУРА И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЦЕЛЬ

Аннотация. *В данной статье анализируется использование приёма возвращения в прошлое (flashback) в ранних рассказах Нирмала Вермы, написанных в рамках движения «Новый рассказ». Исследование проводится на основе нарратологической теории Жерара Женетта и показывает, как возвращения в прошлое служат художественным средством для раскрытия фрагментации современного человеческого опыта, душевных травм, вызванных пережитыми страданиями, и ощущения бессмысленности существования.*

Ключевые слова: *Нирмал Варма, движение «Новый рассказ», возвращение в прошлое (flashback), нарративная структура, опыт современного человека, психологическая травма, бессмысленность существования.*

Tilovmurodova Shamsiqamar Furqat qizi (Tashkent State University of Oriental Studies PhD Candidate; e-mail: tilovmurodovashamsqamar@gmail.com)

FLASHBACKS IN NIRMAL VERMA’S EARLY STORIES: NARRATIVE STRUCTURE AND ARTISTIC PURPOSE

Annotation. *This article analyzes the use of the flashback technique in Nirmal Verma’s early short stories, written within the framework of the “Nayi Kahani” (“New Story”) movement. The study is based on Gérard Genette’s narratological theory and examines how flashbacks serve as an artistic device to depict the fragmentation of modern human experience, the psychological wounds caused by past sufferings, and the sense of existential meaninglessness.*

Keywords: *Nirmal Verma, “Nayi Kahani” movement, flashback, narrative structure, modern human experience, psychological trauma, meaninglessness of existence.*

Kirish (Introduction). 40–50-yillarda tanqidiy realizm hindiy adabiyotida o‘z o‘rnini saqlab turgan bo‘lsa-da, ammo o‘zgarayotgan jamiyatning yangi muammolari hamda yangi mavzular hamda g‘oyalarning talablariga yetarlicha javob bera olmayotganligi yaqqol kuzatila boshladi. Buning asosiy sabablari sifatida esa uzoq kutilgan xalqning ozodlikka erishganligi hamda ozodlikdan kutilgan natijalarga erisholmagan xalq kechinmalari hisoblandi [1;350-b.]. G‘arb mafkuralaridan ta’sirlangan yozuvchilar ushbu kayfiyatni “yangi hikoya” (“नयी कहानी”) harakati ostida qalamga olishdi. Atoqli hind tanqidchisi Namvar Singhning fikriga ko‘ra, ushbu harakatning shakllanishiga hamda rivojlanishiga Nirmal Varmaning o‘rni beqiyos hamda yangi hikoyaning uslubiyatini rivojlantirishda ham nazariy, ham amaliy hissasini ta’kidlash joiz hisoblanadi [2;52-b.]. Adibning hissalaridan biri badiiy qurilmalardan, sujet burilishi, *o‘tmishga qaytish* (flashback) yoki *orqaga nazar tashlash* (analepsis) lardan foydalanadi. Ushbu badiiy qurilma – anaxroniya (hikoya vaqt tartibining buzilishi, voqealar o‘z vaqtida emas, balki orqaga yoki oldinga siljib bayon qilinishi)ning bir shakli bo‘lib, unda asardagi voqealarning ayrimlari voqelikning keyingi qismi ba-yon qilinganidan keyin orqaga qaytish, eslash, yodga olish orqali tasvirlanishi hisoblanadi. Ushbu istilohni *orqaga nazar tashlash (analepsis)* yoki *o‘tmishga qaytish (flashback)* deb nomlash mumkin [3;21-b.]. Ma’lumki, ushbu badiiy uslub sujet davomida o‘tgan zamondagi muhim hodisalar, voqealar yoki xotiralar asosida keltiriladi hamda ular hikoyaning hozirgi voqealariga bog‘liq bo‘ladi *(Maqola davomida analepsis hamda flashback istilohlarini shu yerdan boshlab o‘tmishga qaytish deb nomlashga qaror qilindi.)* Hind

adabiyo-tida "yangi hikoya" ("नयी कहानी") harakati rivojlanishi bilan birgalikda hikoyanavislikda nafaqat mazmun balki shaklda ham bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ushbu harakat asoschilari hamda shakllantiruvchilari hikoyaning mazmunini o'zgartirish bilan chegaralanib qolmasdan o'tmishga qaytish kabi ham badiiy hamda bayon qilish qurilmasini keng qo'llay boshladi. Ma'lumki, bu ularning ushbu badiiy uslubdan foyladanuvchi birinchi yozuvchi bo'lganliklarini anglatmaydi, chunki mumtoz hind adabiyotida Ramayana hamda Mahabharatada o'tmishga qaytishning dastlabki namunalari uchraydi, undan so'ng begal yozuvchiari Sharat Chandra Chattopadhyay o'zining dunyoga mashhur asari "Devdas"; Bankim Chandra Chattopadhyay "Baxt ibodatxonasi" yoki hind nasrining asoschilaridan biri hisoblangan Premchandning ham ("Qurbonlik"), "Shaxmat ustasi" nomli asarlarida qisman bu uslubning elementlari kuzatiladi, Varmagacha bo'lgan davrda romantizm hamda ramziylik elementlarini aks ettirgan Jaishankar Prasad "Jasad" nomli romanida hamda Ageyning "Shekhar: bitta hayot" romanida ushbu badiiy uslub nisbatan asar shakliga ta'sir o'tkazganligi hamda vaqt tartibining buzilishi kuzatiladi. "Yangi hikoya" ("नयी कहानी") harakati davriga kelib ushbu usul nisbatdan ommalashib bordi, Nirmal varma esa ushbu uslubdan ham badiiy qurilma (adabiy uslub), ham bayon qilish (narrativ) qurilmasi sifatida foydalanishni ommalashtirdi. Uning dastlabki hikoyalarida adib ushbu uslub orqali qahramonning ruhiy holatini ochib berish, dramatik taranglik yaratish, hikoya sujetiga qo'shimcha mazmun yaratish, vaqtni ham psixologik ham subyektiv darajada tasvirlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Hindiy adabiyotda modernizmning rivojlanishi va undagi yangi mavzular, yangi janrlar va yozish uslublari bir qancha sharqshunos olimlarning tadqiqot manbayiga aylandi. Jumladan, XX asr o'rtalarida rus adabiyotshunoslaridan Sank-Peterburg universitetining bir guruh olimlari tomidan chop etilgan monografiyada [7;157-b.], o'zbek olimasi T.A. Xodjayeva [6;365-b.] tadqiqotlarida Nirmal Varmaning hayoti va ijodi qisman o'rganilgan. Mazkur maqola hindiy modern adabiyotida norealistik uslubda ijod qilgan Nirmal Varmaning dastlabki hikoyalaridagi o'tmishga qaytishlarga bag'ishlangan dastlabki tadqiqot ekanligi ahamiyatga molikdir.

Tadqiqot metodologiyasi va manbalar (Research Methodology and Materials). Ushbu maqola nazariy-tadqiqot metodi sifatida fransuz adabiyotshunosi va narratologiya (bayon ilmi) sohasidagi eng muhim nazariyotchilardan biri hisoblanagan Jerald Janet (Gérard Genette) tomonidan ishlab chiqilgan Bayon (narratologik) modelga, xususan, uning "Narrative Discourse" (1980) asarida bayon etilgan hikoyada vaqt hamda shakl modeli tahlillariga asoslanadi [4;32-b.]. Metodologiyaning asosiy e'tibori Janet tomonidan tadqiq ostiga olingan "Vaqt tartibi" tushunchasiga qaratilgan bo'lib, u voqealarning voqeilikda yuz berish tartibi (hikoya vaqti) bilan ularning matnda bayon qilinish tartibi (sujet vaqti) o'rtasidagi munosabatni tahlil qiladi. Jenet vaqt nomuvofiqligini 2ga bo'lib tahlil qiladi. Uning fikricha: 1) flashback (o'tmishga qaytish) – hikoyada hozirgi vaqt ichida o'tmishdagi voqealarni orqaga qaytib eslash; 2) flashforward (kelajakka o'tish) – kelajakdagi voqealarni oldindan ko'rsatish yoki eslatib o'tish. Maqolada Nirmal Varma qalamiga mansub 1959-yilda nashr etilgan "Qushlar" nomli hikoyalar to'plamiga kiruvchi "Kundalik o'yini", "Mayaning haqiqati", "Uchinchi guvoh", "Zulmatda", "Rasmli otrkitka", "Setabrning bir oqshomi", "Qushlar" [5;7-b.] nomli hikoyalarining shakl hamda mazmunida o'zgarishlar kuzatilganligi sababli ushbu hikoyalarni tahlil ostiga olish muvofiq deb hisoblandi. Mazkur hikoyalar Janetning narrativ modeli asosida tahlil qili-nadi va hikoyalarning vaqti bilan sujet vaqti o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik grafik modelda ifoda-lanadi. Shuningdek, ushbu model orqali Nirmal Varmaning "yangi hikoya" ("नयी कहानी") harakati uslubi-da yozilgan hikoyalarning hikoya qilish uslubini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot tahlili, muhokamalar va natijalar (Analysis, Discussion and Results). 1972-yilda nashr etilgan Jerald Janet (Gérard Genette) "Bayon Diskursi" asarida vaqtning, xronologik ketma-ketlik yoki uning aksiga munosabat birdirgan holda sunday deydi: *"Bir voqeani vaqt o'tishini o'rganish, voqealar yoki vaqt bo'limlarining bayon qilish (narrativ)da qanday tartibda joylashtirilganligini, shu voqealar yoki vaqt segmentlarining hikoyada qanday tartibda ketishi bilan taqqoslashni anglatadi. Bu tartib hikoyaning o'zida aniq ko'rsatilgan yoki biron-bir ishoralar yordamida taxmin qilinishi mumkin"* [4;32-b.]. Janetning fikricha hikoyada, yoki umuman olganda asarda 2 turdagi voqealar tartibi mavjud: a) voqealar xronologik ketma-ketlikda sodir bo'lsa (A→B→D→E...), unda hikoyada xronologik tartib kuzatiladi (xronologiya), b) matnda voqealar ketma-ketligi boshqa tartibda berilishi mumkin (masalan, C→A→B...), unda bayon tartibi asosida yozilgan bo'ladi (axronologiya) [4;35-b.]. Jerar Jenet voqeilik vaqt tartibini aks ettirish uchun simvolik tuzilma ishlab chiqadi. Bu hikoyada qanday voqealarning ketma-ketligini buzib hikoya qilishini tushunishga yordam beruvchi usul hisoblanadi. Yozuvchilar, ko'pincha, vaqtni bevosita izchil taqdim etmasligi sababli, ular o'tmishga qaytish, xotiralar, hissiyotlar orqali voqeama voqea sakrashadi. Jenet bu harakatlarni belgilash uchun maxsus belgilar tizimini yaratgan: 1) kvadrat qavslar [...] voqealar ko'pligi yoki gu-

ruhlashib o‘tmishga qaytishdan foydalanilganda [xotira qismi]ni ko‘rsatadi; 2) dumaloq qavslar (...) ichki, chuqurroq xotirani, o‘tmishdagi voqeani bildiradi; 3) egri qavslar {...}esa psixologik lahza yoki lavha ajratib ko‘rsatadi. Har bir voqea (A2, B1, D3 kabi) raqamlanadi, shunda voqealar va hissiyotlarning harakat oqimi aniq ko‘rsatiladi. Janet modeliga asosan, xronologik ketma-ketlikda voqeilikni yaratishda hikoyada voqelik H1→H2→H3→H4... deb belgilab olinadi. Hikoyada bayon qilingan tartibni esa alifbo ketma-ketligini belgilab olamiz A→B→D→E→.... Modelga ko‘ra, o‘tmishga qaytishni belgilab olish uchun () lardan foydalaniladi. {} belgisi esa psixologik o‘tmishga qaytish sifatida olinadi. Nirmal Varmaning “yangi hikoya” (“नयी कहानी”) uslubida yozilgan dastlabki hikoyalari Jenetning ushbu modeli asosida tahlil ostiga olindi. Adib qalamiga mansub “Kundalik o‘yini”, “Mayaning haqiqati”, “Uchinchi guvoh”, “Zulmatda”, “Rasmli otrkitka”, “Setabrning bir oqshomi”, “Qushlar” hikoyalari umumiy hisobda quyida keltirilgan jadval orqali o‘tmishga qaytishlar aniqlandi:

Hikoyalar	O‘tmishga qaytish	Janet modelida aks etishi
“Kundalik o‘yini”	3	A2[B1(D3)E1(F2)(G3)H1]I2
“Mayaning haqiqati”	1	A2[B1(D3)E1{F2}G1]H2
“Uchinchi guvoh”	1	A2 [B1(D3) E1{F2}G1] H2
“Zulmatda”	3	A2[B1(D3)E1{F2}G1(H3) I1(J3)]K2
“Rasmli otrkitka”	2	A2 [B1(D3)E1{F2}G1(H3) I1]J2
“Sentabrning bir oqshomi”	1	A2 [B1(D3) E1{F2}G1]H2
“Qushlar”	1	A2[B1(D3)E1{F2}G1]H2

Nirmal Varma tomonidan yozilgan dastlabki 7 ta hikoyaning barchasida o‘tmishga qaytishlar foydalanganligi aniqlandi. Tahlil jarayonida har bir hikoyada o‘tmishga qaytishlar nima maqsadda foydalanilganligini aniqlash maqsadida hikoyada voqealarning xronologik hamda axronologik modeli ishlab chiqildi. Quyida ba’zi hikoyalarning Janet modeliga asoslanib tahlil qilindi:

Hikoya	Hikoyada voqealarning xronologiyasi	Hikoyada voqealarning axronologiyasi
“Kundalik o‘yini”	H1) Bittoning bolaligi, uning Anandamayi Ona bilan uchrashuvi (axronologik ketma-ketlik bo‘yicha D3)	A2) Bitto allaqachon vafot etgan, kundaligi orqali bosh qahramon Bittoni xotirlaydi.
Janet modelida aks etishi	H2) Kanpurdagi 1-unashtiruv	B1) Asosiy o‘tmishga qaytish boshlanadi. Unda Bittoning kelishini, telegrammani, vagzaldagi ikkalasining uchrashuvi, birinchi taassurot, birga o‘tkazgan vaqtlari-ni yodiga oladi.
A2[B1(D3)E1(F2)(G3)H1]I2	H3) Dehliga kelishi hamda Bosh qahramon (hikoyachi) bilan uchrashuv	D3) Chuqur o‘tmishga qaytish. Hinduizm dining 20-asrdagi mashhur diniy allomalaridan bo‘lgan Anandamayi Ona bilan qolishni xohlashi, unga ergashishi Bittoning diniy-falsafiy qarashlari tushuntirishga qaratilgan.
	H4) Bosh qahramon bilan Dehlidagi birga o‘tkazgan kunlari	E1) Bittoning bosh qahramon bilan Dehlidagi o‘tgan kunlari
	H5) Kundalik o‘yini hamda rasmni yirtib tashlashi, bosh qahramondan hissiy uzoqlashuvi	F2) Bittoning Shimladagi o‘tgan kunlari
	H6) Ikkinchi unashtiruv, Bittoning ahvoli yomonlashuvi	G3) Kelinoyilaridan eshitgan Bittoning birinchi unashtiruvning buzilishi
	H7) Bosh qahramonlarning cherkov bo‘ylab tungi sayohati	H1) Bittoning rasmni yirtib tashlashi, bosh qahramondan hissiy uzoqlashuvi, cherkov bo‘ylab tungi sayohati, Ikkinchi unashtiruv, Bittoning ahvoli yomonlashuvi
	H8) Bittoning vafoti aks ettirish uchun bosh qahramonnning sog‘in-	I2) Bosh qahramon (Hikoyachi) yolg‘iz Bittoni sog‘inishi

	chi	
Hikoya	**Hikoyada voqealarning xronologiyasi**	**Hikoyada voqealarning axronologiyasi**
“Uchinchi guvoh”	H1) Bosh qahramonning muharrir sifatida ishlashi hamda eski bir uyga koʻchib oʻtishi	A2) Hikoya hozirgi zamonda Janob Rohatgining mayxoʻrlikdan keyin hissiyotlarga berilishi bilan boshlanadi
Janet modelida aks etishi	H2) Nirja hamda kasal onasining shaharga qaytishi	B1) Bosh qahramon (Janob Rohatgi) sevgilisi Nirga bilan uchrashuvini yodiga olib oʻz hikoyasini boshlaydi
A2 [B1 (D3) E1 { F2 } G1] H2	H3) Nirjaning sham soʻrab chiqishi va bosh qahramon bilan uchrashuvi	D3) Nirjaning bosh qahramondan sham soʻragani hamda birinchi marotaba ikkalasi oʻrtasida bogʻliqlik boshlanganligini
	H4) Ikkalasi oʻrtasida iliq munosabatlarining boshlanishi	E1) Ikkalasi oʻrtasidagi munosabatlar-ning qalinlashuvi
	H5) Nirjaning onasining ahvoli yomonlashuvi, Bosh qahramonning yordami, Nirjaning unga nisbatan ishonchi ortishi	F2) Nirjaning onasi betobligi sababli bosh qahramonga nisbatan ishonchining ortishi
	H6) Oila qurishga qaror qilishlari hamda bosh qahramoning ichki kechinmalari	G1) Oila qurishga qaror qilishlari, ammo nikohdan oldin Nirjaning yoʻqolib qolishi
	H7) Nirjaning nikohdan oldin ketib qolishi	H2) Hozirgi vaqtga qaytish, Janob Rohatgi hikoyasini aytib berishi
	H8) Yillar oʻtib, hozirgi kundagi klubdagi Janob Rohatgining oʻz hikoyasini soʻzlab berishi	
Hikoya	**Hikoyada voqealarning xronologiyasi**	**Hikoyada voqealarning axronologiyasi**
“Mayaning haqiqati”	H1) Onasining befarligi asosida oʻtgan bolalik yillari	A2) Yomgʻirdan keyin boʻsh xonada oʻtirib bosh qahramonning sukunatga choʻmishi
Janet modelida aks etishi	H2) Bosh qahramon voyaga yetgan shaxs, ishsiz yomgʻirdan keyin xonada oʻtirishi	B1) Bosh qahramon koʻchaga chiqishi, yomgʻirdan keyin hammayoq loy hamda bolalar shovqini bilan toʻla
A2[B1(D3)E1{F2}G1]H2	H3) Koʻchaga chiqadi qarasa hammayoq loy hamda bolalar shovqini	D3) Ariqqa tushib ketayotganida bir bolakayni qutqarib qoladi
	H4) Tasodifiy Lata ismli qizchani uchratib qoladi, uni ariqga tushib ketishidan qutqarib qoladi	E1) Lata bilan suhbat
	H5) Lata bilan bolalarcha suhbat quradi	F2) Ertakni xotirlash (“Sakkiz dengiz ortidagi mamlakat”)
	H6) Lata ertak aytib beradi (“Sakkiz dengiz ortidagi mamlakat”)	G1) Qayiqning suzishi hamda vaqtni ikkalasi unutib qoʻyadi
	H7) Bosh qahramon va Lata ikkalasi qayiqda suzishadi hamda goʻyoki vaqt toʻxtagandek boʻladi	H2) Hozirgi zamonga qaytish, hikoya yana qaytadan boshlanadi
	H8) Bosh qahramon hozirgi zamonga qaytadi hamda hikoya yana qayta-dan boshlanadi	

Hikoyalarning xronologik hamda axronologik tartibini tuzib chiqish orqali biz Nirmal Varmaning oʻtmishga qaytishlardan nima maqsadda foydalanganligini aniqlashimiz oson boldi. Hikoyalar tahliliga asosan, adib oʻtmishga qaytishdan quydagilarni ochib berish uchun foydalangan:

1. Zamonaviy inson hayotining parchalanishi:

a) hayotning faqat bir tekisda boʻlmasligi, xotira, ruhiy jarohatning yillar oʻtsada insonlarning hozirgi hayotiga ta’sir etishini hikoyalarida aks ettirgan. Adibning “Uchinchi guvoh” hikoyasidagi ushbu oʻtmishga qaytish parchasida bosh qahramonning yillar oʻtsada oʻtmishdagi voqealari u bilan, uning bugungi kun hayotiga ta’sir qilayotganligini kuzatish mumkin:

"मैं आपकी बात मानने के लिए तैयार नहीं हूँ." वकील साहब जरा गर्म हो गए. "कौन स्त्री अपनी मरजी से उस आदमी को छोड़कर चली जाएगी, जिसे वह सचमुच सच्चे दिल से चाहती है। हाँ, अगर वह सनकी या पगाल हो तो बात दूसरी है।" [5;48-b.]. *("Men sizning fikringizga qo'shilishga tayyor emasman", advokat janoblari biroz g'azablanib dedi, –"qaysi ayol chin yurakdan sevgan odamni o'z xohishi bilan tashlab ketadi? Mumkinki, agar u telba yoki aqldan ozgan bo'lsa, unda bu boshqa masala).*

"जिस लड़की को मैं जानता था, वह पागल या सनकी कुछ भी न थी, लेकिन फिर भी... ।" रोहतगी साहब सहसा चुप हो गए। उनकी आँखों में अवसाद की हल्की-सी छाया सिमट आई।" [5;48-b.]. *("Men tanigan qiz na telba edi, na alqdan ozgan, lekin, baribir,..."– Rohtagi janob birdan jimib qoldi. Uning ko'zlarida qayg'uning yengil soyasi paydo bo'ldi);*

b) o'tmishga qaytish qahramonlarning o'tmish hamda bugungi kun arosatida qolib ketganliklarini, bugungi kun bilan ularning yashay olmasliklarining sabablarini ko'rsatib berish uchun foydalanilgan. Shu asnoda, adibning "Qushlar" hikoyasidagi bosh qahramon Latika sevgilisi vafotidan so'ng bugungi hayoti ma'nosizlarcha qolganini, u na o'tmishda na bugungi kunda yashayotgani qalam ostiga olingan. Nima uchun bunday yashayotganligi o'tmishga qaytishlar orqali berilgan.

2. O'tmishga qaytishlar qahramonlarning ruhiy jarohatlarining sabablari sifatida. Dastlabki hikoyalarida Varmaning qahramonlari hech biri o'z og'rig'ini ochiqchasiga ifodalay olishmaydi, shuningdek buning sabablarini ham. Varma qahramonlarining ichki bo'shlig'ini, afsuslarini, oila, do'stlar va boshqalar bilan munosabatlarning buzilishi sabablarini ochib berish uchun o'tmishga qaytishdan foydalangan. Uning "Rasmli atkritka" hikoyasida Paresh do'sti SD bilan suhbatidan Nilu bilan bo'lgan munosabatlarining buzilishiga sabablari o'tmishga qaytish orqali berilgan:

बारिश के बाद भी रात गर्म थी। गीली सड़कों पर दुकानों की नियोन लाइट्स के नीचे चलते हुए मुझे वे सब बातें याद हो आईं, जो मैं नीलू से कहना चाह रहा था और नहीं कह पाया था। मुझे अच्छा लगा कि मैंने उन्हें नहीं कहा। अब सोचकर मुझे शर्म आ रही थी, क्योंकि कुछ बातें हैं, जो एक उम्र के संग जुड़ी होती हैं, और अगर उम्र बीत जाए, और वे अनकही रह जाएँ, तो उन्हें कभी कहना नहीं होता। [5; 124-b.].

(Yomg'irdan keyin ham tun issiq edi. Ho'l ko'chalarda do'konlarning neonsimon chiroqlari ostidan yurganimda, Niluga aytmoqchi bo'lgan, ammo aytolmagan barcha gaplar yodimga tushdi. Yaxshiyamki, ularni aytmaganman. Ayni damda yodimga olsam, uyalib ketaman, chunki ba'zi gaplar borki, ular ma'lum vaqtga tegishli bo'ladi, va agar o'sha vaqt o'tib ketgan bo'lsa va ular aytilmagan bo'lsa, endi hech qachon ularni aytishga hojat yo'q).

3. Inson mavjudligining ma'nosizligi. Varmaning tahlilga olingan hikoyalarida bosh qahramonlar boshqalardan hamda o'zlaridan ham uzoqlashgan bo'lib, o'tmishga qaytish orqali qahramonlarning o'tmishdagi omadsizliklari, buzilgan munosabatlari, bolalikdagi ruhiy jarohatlari hamda yomon tajribalari bugungi kunda ham qahramonlarning hayotiga ta'sir ko'rsatayotganligini hamda bugungi hayotining ham ma'nosizligiga olib kelganligini ko'rsatish uchun foydalanilgan. "Sentabrning bir oqshomi" nomli hikoyada bosh qahramonning bolaligida dadasi bilan janjal qilib, uyini tark etgani, yoshi katta bo'lib ham bugungi kundagi hayotining ma'nosiz bo'lib yurganini aks ettirish uchun o'tmishdan qaytishdan foydalanilgan.

"बच्ची, क्या तुम्हें याद है, जब हम दोनों बहुत छोटे थे, तब मैं घर से नहीं भागा था। तब तुम्हारा ब्याह नहीं हुआ था, तब हम कुछ नहीं जानते थे, जब हम सब कुछ जानते थे। आज तुम सोचती हो कि मैं इससे भिन्न हो सकता था जो आज हूँ-किन्तु जो आज हूँ वह उन दिनों मेरे भीतर था, और उसे देखकर तुम नहीं डरती थीं।" [5; 132-b.].

(Kichkintoy, esingdami, ikkalamiz juda kichkina bo'lganimizda, o'shanda men uydan qochib ketmagan edim. O'shanda sen turmushga chiqmagan eding, o'shanda biz hech narsani bilmas ham edik, lekin hamma narsani ham bilardik. Bugun o'ylaysanki, men bugungidan boshqacha odam bo'lishim mumkin edi, lekin bugungi menim o'sha kunlarda ham ichimda bor edi va o'shanda sen uni ko'rib, qo'rqmasding.

Janet modeliga asoslangan holda hikoyalarda voqealarning qanday ketma-ketlikda kelishini modellashtirish orqali adib nima maqsadda o'tmishga qaytishlardan foydalanganligini aniqroq tushunish imkonini berdi. A2[B1**(D3)**E1(F2)**(G3)**H1]I2, A2[B1**(D3)**E1{F2}G1]H2, A2 [B1**(D3)** E1{F2}G1] H2, A2[B1**(D3)**E1{F2}G1**(H3)** I1**(J3)**]K2, A2 [B1**(D3)**E1{F2}G1**(H3)** I1]J2, A2 [B1**(D3)** E1{F2}G1]H2, A2[B1**(D3)**E1{F2}G1]H2 modellarida qoraga olingan voqealar o'tmishga qaytishlar orqali aks ettirib, adib ko'p qatlamli xotiralarni (xotira ichida xotira) uslini ham foydalangan. Bunda qahramonlarning o'tmishdagi xatti-harakatlari sabablarini berish uchun foydalangan. Shuningdek, u hikoyalarda psixologik lahza yoki lavha (tahlilda, modelda {...} ichida berildi) berish orqali voqealar kulminatsiyasini emas, balki ruhiy kulminatsiya yaratadi. Tahlilga olingan 7 ta hikoyaning barchasida o'tmishga qaytishlar usulidan foydalangan-

lik zamonaviy inson tajribasining parchalanishini, o‘tgan hayotiy tajribalarning keltirib chiqargan psixologik iztiroblarni va mavjudlikning ma’nosizlik g‘oyasini yoritish uchun xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu maqolada Nirmal Varmaning dastlabki hikoyalari “yangi hikoya” (“नयी कहानी”) harakati asosida yaratilgan bo‘lib, undagi bayon uslubidagi o‘zgarishlarni hamda ular nima maqsadda foydalanganligini aniqlash maqsadida Janet modelidan foydalanib shuni aytish mumkinki, adibning tahlil ostiga olingan barcha hikoyalarida o‘tmishga qaytishlardan foydalanilgan bo‘lib, ko‘p qatlamli xotiralar asosida o‘tmishga qaytishlar guruhlashgan holda aks ettirilgan. Hikoyalardagi o‘tmishga qaytishlar oddiy bayon usul sifatidan chetga chiqib, balki badiiy maqsadni tasvirlash uchun muhim badiiy vosita sifatida foydalanilgan. Ko‘p qatlamli xotiralar (D3,G3,H3) va psixologik o‘tmishga qaytishlar orqali Varma o‘z qahramonlarining hozirgi hayotiga ta’sir qilgan yoki bugungi hayotini qanday bo‘lishiga sababchi ichki, yoki ruhiy jarohatlarni ochib bergan. Shuni ta’kidlash joizki, adibning bayon usuli rivoji haqida yanada chuqur tahlillar olib borilishi mumkin, ayniqsa, uning “yangi hikoya” (“नयी कहानी”) harakatidan so‘ng yozilgan hikoyalarini tahlil qilish, bayon qilish (Narratologiya) ilmi uchun ham kerakli ilmiy hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. T., Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020, 552-bet.

(2). नामवर स. कहानी नई कहानी. – द.: लोकभारती प्रकाशन, 1982, 196 प.

(3). Chris B. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. USA, Oxford University Press Inc, 2001, 291-bet.

(4). Gerard G. Narrative Discourse. USA, Cornell University Press, 1980, 284-bet.

(5). निर्मल व. परिंदे. – द.: राजकमल प्रकाशन, 2024, 182 प.

(6). Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. T., Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020, 552-bet.

(7). Цветкова С.О. Очерки истории литератур Индии: X–XX вв. СПб, Санкт-Петербургский Государственный университет, 2014, 320 с.

https://orcid.org/0000-0001-6347-1203

Ulkanboyeva Matluba Hasanboy qizi (O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti; matluba-1990@umail.uz)

O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA BADIIY KOMPOZITSIYA TIPOLOGIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar hikoyachiligida badiiy kompozitsiya qurilishidagi an’anaviylikning davom etishi va uning zamonaviy talqinda yangilanishi tahlil qilinadi. Mahorat bilan tashkillangan kompozitsion butunlik ijodkorning badiiy niyati va estetik pozitsiyasini ochishda muhim omil bo‘lishi mumkinligi, shuningdek, ayrim kompozitsion kombinatsiyalar davrlararo adabiy an’anaga aylanib, zamonaviy hikoyachilikda ham davom etayotgani misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy kompozitsiya, badiiy obraz, sujet, roviy, kompozitsion tafakkur, badiiy unsurlar, an’anaviylik, novatorlik.*

Улканбоева Матлуба Хасанбоевна (докторант PhD Института узбекского языка, литературы и фольклора)

ТИПОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ КОМПОЗИЦИИ В УЗБЕКСКОМ РАССКАЗЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется продолжение традиции в построении художественной композиции в молодежной прозе и её обновление в современной интерпретации. На основе примеров рассматривается, как мастерски организованная композиционная целостность может стать важным фактором в раскрытии художественного замысла и эстетической позиции автора. Также анализируется, как некоторые композиционные приемы, превратившись в межпериодную литературную традицию, продолжают существовать и в современном повествовании.*

Ключевые слова: *художественная композиция, художественный образ, сюжет, рассказчик, композиционное созерцание, художественные элементы, традиционность, новаторство.*

Ulkanboyeva Matluba Hasanboy qizi (PhD student, Institute of Uzbek language, literature and folklore)

TYPOLOGY OF ARTISTIC COMPOSITION IN UZBEK STORY

Annotation. *This article analyzes the continuation of tradition in the construction of artistic composition in youth prose and its renewal in contemporary interpretation. Through examples, it examines*